



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024




INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION: a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2025, Issue 4.

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





TILSHUNOSLIKDA ADABIY TIL VA SHEVA MUNOSABATI

Raimnazarova Nasiba Xoliyarovna

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

O'razova Inobad Normurod qizi

TerDPI 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikda adabiy til va shevalarning o'zaro munosabati, ularning ijtimoiy, madaniy hamda tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi. Adabiy tilning me'yoriy xususiyatlari, shakllanish manbalari hamda millat birligini ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, shevalarning til tizimidagi o'rni, xalq og'zaki ijodidagi roli va adabiy tilni boyitishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Maqolada adabiy til va shevalarning o'zaro ta'siri, ularning zamonaviy davrdagi ahamiyati va til madaniyatiga qo'shgan hissasi ilmiy tahlil asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: adabiy til, sheva, dialekt, tilshunoslik, me'yor, xalq tili, nutq madaniyati, til tizimi, fonetika, leksika, grammatik xususiyatlar, o'zaro ta'sir, til madaniyati, milliy birlik.

Annotation: This article analyzes the interaction of literary languages and dialects, their social, cultural and historical importance in linguistics. Normative features of the literary language, its sources of formation, and its role in ensuring national unity are highlighted. Also, the place of dialects in the language system, their role in folk art and their importance in enriching the literary language are shown. The article describes the interaction of literary languages and dialects, their importance in modern times and their contribution to language culture based on scientific analysis.

Key words: literary language, dialect, dialect, linguistics, standard, folk language, speech culture, language system, phonetics, lexicon, grammatical features, interaction, language culture, national unity.

Аннотация: В данной статье анализируется взаимодействие литературных языков и диалектов, их социальное, культурное и историческое значение в языкознании. Выделены нормативные особенности литературного языка, источники его формирования, роль в обеспечении национального единства. Также показано место диалектов в языковой системе, их роль в народном творчестве и значение в обогащении литературного языка. В статье на основе научного анализа описывается взаимодействие литературных языков и диалектов, их значение в современное время и вклад в языковую культуру.

Ключевые слова: литературный язык, диалект, диалект, языкознание, стандарт, народный язык, речевая культура, языковая система, фонетика, лексика, грамматические особенности.

Tilshunoslik tillarni o'rganuvchi fan hisoblanadi. Uni biz yana lingvistik deb ham nomlasak bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, tilshunoslik fani inson

tafakkuri va ijtimoiy hayotining ajralmas qismi sifatida tilning turli shakllarini o'rganadi. Tilning tarixiy, hududiy va ijtimoiy ko'rinishlari, shuningdek, adabiy til va shevalarning o'zaro munosabati tilshunoslikda muhim o'rin egallaydi. Tilshunoslik doirasida adabiy til va sheva munosabati har doim dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Adabiy til millatning madaniy va ma'naviy birligini ifodalaydi. Asosan ,adabiy til maktab,oliy o'quv yurtlari hamda ommaviy axborot vositalarida keng qo'llaniladi. Shevalar xalqning turli guruhlarining tildagi tabiiy nutq shaklini namoyon etadi.

Adabiy til (standart) umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, grammatik qonun-qoidalarga rioya qilinadigan, ma'lum me'yorga solingan, umummajburiy va qonuniy to'g'ri qo'llanadigan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi tildir. Adabiy til jamiyatning ilm-fan, ta'lim, adabiyot, diplomatiya, huquqshunoslik, ish yuritish, turli tashkilot va ziyolilarning kundalik hayotida ishlatiladigan milliy til ko'rinishidir. Adabiy tilga muomala jarayonida qo'llanadigan shevaga, so'zlashuvga xos bo'lgan so'zlarning ishlatilmasligi xosdir. Ingliz tilshunosligi an'analari ko'ra, adabiy til standard language, standard English deb yuritiladi. Shuningdek, standartlashgan adabiy til termini ham qo'llaniladi. K.Naringzning fikricha, standartlashgan adabiy tilning mavjudligi har qanday rivojlangan jamiyat uchun xosdir. Adabiy til – bu millatning umumiy aloqa vositasi bo'lib, me'yorlashgan, tizimlashtirilgan va yozma shaklda qo'llanadigan til shaklidir. U milliy madaniyat, adabiyot, ilm-fan va ta'lim sohalarida asosiy aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Adabiy tilning shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, unda shevalar, dialektlar, xalq tili va yozuv an'analari muhim rol o'ynaydi. O'zbek adabiy tili ham o'z taraqqiyotida turli davrlar va hududiy shevalardan oziqlangan. Adabiy til insoning ma'naviyatini belgilovchi tushuncha hisoblanadi. Insonlar ko'proq ish faoliyatida foydalandi. Adabiy til tilning eng go'zal, eng nafis va eng aniqlikni talab qiladigan ko'rinishi. Kitoblarda, rasmiy hujjatlarda, ilmiy ishlar va ommaviy axborot vositalarida aynan shu til ishlatiladi. Adabiy tilning rivojida yozuvchilar, olimlar, jurnalistlar va o'qituvchilarning hissasi juda katta. Ular tilning me'yorlarini shakllantirib, uni avloddan avlodga yetkazib boradi. Bugungi kunda adabiy til nafaqat rasmiy nutqda, balki internet, ijtimoiy tarmoqlar va kundalik hayotda ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi, deb bo'lmaydi. Aksincha, adabiy tilni bilish har bir insonning savodxonligi va madaniyatining muhim belgisi bo'lib qolmoqda. Menimcha, o'zbek adabiy tilining boyligi – uning shevalardan oziqlanishi, tarixiy merosga tayanishi va zamon bilan hamnafas bo'lib rivojlanishidadir.

Sheva – bu tilning muayyan hududga xos, fonetik, leksik va grammatik jihatdan o'ziga xos bo'lgan shaklidir. Dialekt esa bir necha shevalarni o'z ichiga olgan yirik hududiy til birligi hisoblanadi. O'zbek tilida asosan uchta yirik dialekt mavjud: qarluq (adabiy til asosi), qipchoq va o'g'uz dialektlari. Shevalar tilning tabiiy boyligi bo'lib, xalqning tarixiy, madaniy va etnik o'ziga



xosligini ifodalaydi. Ular adabiy tilning shakllanish manbai sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Masalan. Toshkent shevasida qayerga ketyapsan, Xorazda sabzini tashir, Farg'onada narvonni shoti, Surxondaryoda esa j harfi bilan ko'proq talaffuz qiladi, jo'q, jo'qol, jilon, jilon, jetmish jetti kabi so'zlar shular jumlasidandir.

Shevalarning yana bir qadri – ularning tilni boyitishida. Adabiy til ko'p hollarda shevalardan oziqlanadi. Ko'plab yangi so'zlar, iboralar, obrazlar avval shevalarda paydo bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan ular adabiy tilga ham singib ketadi. Bu – ona tilning tiriklik belgisidir. Shevani, asosan, ma'lum hududdagilar tushunadi. Chunki sheva har bir hududning o'zining shevalaridan foydalanadi. Lekin boshqa hududgilar tushunmaydi. Misol sifatida samarqandliklarning fikrini farg'onaliklar nima deyayotganini anglamaydi. Adabiy til va shevalar o'zaro uzviy aloqada bo'ladi. Adabiy til shevalardan so'z boyligi, iboralar, ifoda vositalarini oladi, shevalar esa adabiy til ta'sirida asta-sekin me'yorlashadi. Bu jarayon tilning tabiiy rivojlanishini ta'minlaydi. Masalan, o'zbek adabiy tilida turli hududiy so'zlar va talaffuz shakllari me'yoriy tizimga kiritilgan. Shevalar xalq og'zaki ijodi, maqollar, qo'shiqlar orqali adabiy tilni boyitadi. Bugungi kunda adabiy tilning me'yorlarini saqlash, uni to'g'ri o'rgatish va ommaviy axborot vositalarida to'g'ri qo'llash masalasi dolzarbdir. Biroq shevalar ham madaniy meros sifatida e'tiborga loyiq. Ular orqali xalqning qadimiy so'z boyligi, urf-odatlar va dunyoqarashi saqlanadi. Tilshunoslar shevalarni o'rganish orqali adabiy tilning tarixiy ildizlarini chuqurroq anglashlari mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tilshunoslikda adabiy til va sheva munosabati o'zaro boyituvchi jarayon sifatida qaraladi. Adabiy til – millatning birligini ta'minlovchi omil bo'lsa, shevalar – tilning tabiiy rivojini, xalqning tildagi xilma-xilligini ifodalaydi. Shu bois har ikkala til shaklini o'rganish, saqlash va to'g'ri qo'llash til madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi. Har ikki til hodisasining uyg'un mavjudligi milliy tilning kuchi va davomiyligini ta'minlaydi. Shevalarni asrash va ularga hurmat bilan qarash adabiy tilning boyishiga, tilning yanada mukammal shakllanishiga xizmat qiladi. Demak, tilshunoslikda adabiy til va shevaga yagona tilning ikki muhim qatlami sifatida qarash eng to'g'ri yondashuv hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, I. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Gulomov, A. va boshq. "O'zbek tili tarixi". Toshkent: O'qituvchi, 1994.
3. Yo'ldoshev, M. "Tilshunoslik asoslari". Toshkent: Fan, 2002.
4. Rasulov, R. "O'zbek adabiy tili me'yorlari". Toshkent: Universitet, 2015.
5. Shoir Usmonova, Nargiz Bekmuxamedova, Gulbahor Iskandarova "Sotsiolingvistika". Toshkent "Universitet"-2014.